



MEVA-SABZAVOTCHILIK KORXONALARI FAOLIYATINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI

Tillayeva Muhayyo Abdumutalibjon qizi,

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar
instituti Agrobiznes va marketing kafedrasida assistenti
<https://doi.org/10.5281/zenodo.8009917>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 25-May 2023 yil
Ma'qullandi: 28-May 2023 yil
Nashr qilindi: 06-June 2023 yil

KEY WORDS

Iqtisodiyot globallashuvi, innovatsiya, fan va texnika-texnologiya, Global GAP xalqaro standartlar va sertifikatlash tashkiloti innovatsion faoliyat, innovatsion xavf va xatarlar, innovatsion salohiyat, innovatsion g'oyalar.

ABSTRACT

Respublikamizda innovatsion iqtisodiyotni shakllantirishda agrar sohada ilmiy ta'minot tizimini rivojlantirishga alohida e'tibor berilmoqda. Maqsad agrar soha ilmiy-ta'minot mavqeini ko'tarish, fan yutuqlarini amaliyotga keng joriy etishdan iboratdir. Ushbu maqolada qishloq xo'jaligini innovatsion rivojlantirish yo'nalishlariga bag'ishlangan takliflar ishlab chiqilgan.

ABSTRACT

In the development of the innovative economy in our republic, special attention is paid to increasing the scientific supply in the agricultural sector. The aim of this is to increase the status of scientific support in the agricultural sector, to widely introduce the achievements of science into practice. Proposals for the preparation of articles on the directions of agricultural development in three farms.

Keywords: Globalization of the economy, innovation, science and technology, Global GAP international standards and certification organization innovative activity, innovative risks and dangers, innovative potential, innovative ideas.

Bugun iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida innovatsiyalar iqtisodiyotni xususan, qishloq xo'jaligini rivojlantirishning eng xarakterli xususiyatlaridan biriga aylanib bormoqda.

O'zbekistonda innovatsion jarayonlarga ijobiy munosabat va qo'llab-quvvatlash tizimi joriy etilgani hech kimga sir emas. Zero, O'zbekistonda qabul qilingan ko'plab normativ-huquqiy hujjatlar va ijtimoiy tarmoqlarda keng muhokamaga qo'yilgan qonun loyihalarida yuqorida fikrimiz isboti bo'la oladi. "Innovatsion faoliyat to'g'risida" 2020 yil 27 iyuldagi O'zbekiston Respublikasining Qonuni, Ular orasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 29 martdagi "O'zbekiston Respublikasida meva-sabzavotchilikni jadal rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5388 va 2018 yil 17 oktyabrdagi "Meva-sabzavot

mahsulotlarini tashqi bozorlarga chiqarish samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3978, 2019 yil 14 martdagi "Meva-sabzavotchilik sohasida qishloq xo'jaligi kooperatsiyasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4239 qarorlari, 2019 yil 23 oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5853 sonli farmonlarini fikrimiz isboti sifatida keltirishimiz mumkin.

Ushbu hujjatlarni qabul qilishdan maqsad aynan qishloq xo'jaligida meva-sabzavotchilik sohasi faoliyatini rivojlantirish, yangi agrobiznes vakillarini vujudga keltirish va rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, innovatsion tizimning salohiyati va samaradorligini oshirishga ko'maklashish, innovatsiyalar uchun qulay bo'lgan normativ-huquqiy, moliyaviy va axborot muhitini yaratishdan iborat. Shuningdek, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida raqobatbardoshlik va mahsuldorlikni oshirish, yuqori texnologiyali mahsulotlar ulushini oshirishni rag'batlantirish, ishlab chiqarishni ko'paytirish va ishlab chiqarish va eksport tarkibida ulushni oshirish, innovatsion texnologiyalar va ilg'or boshqaruvni qo'llashni kengaytirishdir. Qishloq xo'jaligini xususan meva-sabzavot korxonalarini innovatsion rivojlantirish, yangi tadbirkorlarni vujudga keltirish orqali sohaning salohiyati va samaradorligini oshirishga ko'maklashish tadqiqot ishining maqsadi hisoblanadi.

So'nggi yillarda ilmiy va innovatsion ishlanmalarni joriy etish hisobiga meva-sabzavot, kartoshka, dukkakli va yog'li o'simliklar ishlab chiqarish hajmi yiliga 6-8 foizga yetkazildi. Birgina 2022-yilning yanvar-sentabr oylarida YAIM tarkibida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining ulushi 24,8 % ni tashkil etdi va mazkur tarmoqning YAIM mutlaq o'sish sur'atiga ta'siri 0,9 f.p.ni tashkil etdi. 2022- yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 2 983,5 ming tonna meva (ushbu ko'rsatkich 2021-yilning mos davriga nisbatan 104,6 % ko'p), 1 708,2 ming tonna sabzavotlar (2021- yilning yanvar-dekabriga nisbatan 101,9 % ga ko'p) yetishtirildi. Eksportga esa 1 152,1 mln dollarlik meva-sabzavot (2021- yilning yanvar-dekabriga nisbatan 119,7 % ga ko'p) yo'naltirildi. Meva-sabzavotni qayta ishlash darajasi 15 foizga yetkazildi. Albatta bu ijobiy o'sish ko'rsatkichlari, lekin ushbu yo'nalishda yetarlicha imkoniyatlar yaratilgani holda, natijalarni bundanda yuqorilatish bugunning muhim ahamiyatli vazifasi sifatida qolaveradi.

Bugun mamlakatimizda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilarning ilmiy-texnik imkoniyatlari va ishlab chiqarishdagi ilg'or tajribalari to'g'risida keng ma'lumotlarga ega bo'lish ularni xo'jalik yuritishning innovatsion usullariga o'rgatish, innovatsiya qoidalarini o'zlashtirish, maslahat yordamlari berish orqali sohaning innovatsiya faolligini ko'tarishni ta'minlash uchun sharoitlar yaratildi. Biroq, agrar tarmoq o'zining tabiiy-iqlim omillariga ta'sirchanligi va bog'liqligi sababli innovatsiyalarni yaratish va tatbiq etishda boshqa sohalarga nisbatan bir qator murakkabliklarga ega va shuning uchun ham uni innovatsion modernizatsiyalash asosida rivojlantirish o'ziga xos va mos innovatsion yo'nalishlarda chuqur ilmiy-tadqiqot va tajriba ishlarini tizimli ravishda takomillashtirib borishni taqozo qiladi. Respublika agrar tarmog'ida yuz berayotgan iqtisodiy o'sish asosan, import o'rnini bosadigan mahsulotlar yetishtirish, tadbirkorlikni rivojlantirish hisobiga yuz bermoqda. Lekin, tarmoqda ilmiy sig'imli agrar texnologiyaga asoslangan yo'nalishlardagi innovatsion jarayonni rivojlantirish bugungi talab darajasida emas.. Bunga tarmoq xususiyatidan kelib chiqqan holda innovatsiyalar samaradorligini oshirish

yo'llari, innovatsion salohiyatning mavjud sharoitlarga mosligini baholash kabi qator omillar salbiy ta'sir etmoqda.

Meva-sabzavot mahsulotlari yetishtiruvchi ko'p sonli dehqon va fermer xo'jaliklari faoliyati sharoitida agrar innovatsiya bozori shakllanishi va faoliyati xususiyatlari, yo'nalishlari to'g'risida axborotni yig'ish, ularga ishlov berish, olingan ma'lumotlardan foydalanishda bilimlar yetishmasligi sharoitida, ilmiy ishlanmalarni innovatsion loyiha sifatida amalga oshirishga urinish, natijada, innovatsion g'oyalarning iqtisodiy, texnik va texnologik, ekologik samaradorligi pasayishiga olib keladi.

Yetishtirilayotgan katta hajmdagi meva-sabzavot mahsulotlarini yig'ib olish, saqlash va qayta ishlashni to'g'ri tashkil etmasdan turib, aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabini qondirib bo'lmaydi. Bu jarayonda ekiladigan navlarning seleksiyasiga, meva-sabzavot yetishtiriladigan hududning iqlim sharoitiga, tuproq unumdorligi va mahsulotlarning eksport xususiyatlariga alohida e'tibor qaratish lozim. Bundan tashqari, tanlab olingan meva yoki sabzavotlarga agrotexnik ishlov berish jarayonini xalqaro standartlar talablariga mos holda olib borish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu kabi xalqaro standartlardan biri Yevropaning Global GAP xalqaro standartlar va sertifikatsiyalash tashkiloti bo'lib, meva-sabzavotlarning mazkur standartlar bo'yicha yetishtirilishi va saqlanishi nafaqat Yevropa, balki boshqa rivojlangan mamlakatlar uchun ham savdo yo'llarining ochilishini ta'minlaydi. Global GAP qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish uchun birinchi darajali standart bo'lib, qishloq xo'jaligi ekinlarini ekish vaqtidan to mahsulotlarni yig'ib olishgacha bo'lgan davrdagi barcha jarayonni qamrab olgan me'yoriy hujjatdir.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish davlatning xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning ishlab chiqarish-moliyaviy faoliyatiga aralashuvini kamaytirib borishi bilan bevosita bog'liq holda yuz bermoqda. Fermer tadbirkor sifatida innovatsion g'oyalarning haqiqiy xaridoriga aylanishi uchun uning birinchi navbatda iqtisodiy erkinligi kengayib borishi lozim.

Bunda asosan: dehqonning ishlab chiqarish vositalariga, yetishtirilgan mahsulot va yaratilgan foydaga to'liq egalik imkoniyatini kengaytirib borishga; ekinlar tarkibini belgilash va agrotexnik tadbirlarni amalga oshirishdagi erkinlik darajasini ortib borishiga; mahsulot sotish kanalini tanlash va baho belgilash borasidagi erkinligi; raqobat muhitidagi resurslar bozoridan erkin mahsulot sotib olish imkoniyatini yaratishga; raqobat muhitidagi xizmatlar bozoridan sifati va bahosi jihatidan maqbul xizmat xarid qilish imkoniyatini kengaytirishga; raqobat muhitidagi qayta ishlovchilarga mahsulot sotish imkoniyatini yaratish tadbirlarini amalga oshirishga; o'sib boruvchi bozor talabini qondirishga qodir bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarishga zamonaviy texnikalar, ekinlarning yangi navlari, agrotexnologik yangiliklarni joriy qilishga asoslanishi lozim.

Endi masalaga respublikamiz qishloq xo'jaligida innovatsion g'oyalar bozorini rivojlantirish bo'yicha shakllangan shart-sharoitlar nuqtai-nazaridan yondashadigan bo'lsak, muammolardan yana biri – qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish va bozor innovatsiyasi bo'yicha yuqorida ko'rilayotgan choralardan tashqari, yig'ib olingan mahsulotdan samarali foydalanish, qayta ishlash sanoatini rivojlantirish, turli xil iste'mol tovarlarini ishlab chiqarishni kengaytirishdir. Bu qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqish samaradorligini oshiradi,

shuningdek, ichki bozordagi singari tashqi bozorda ham raqobatbardoshlikni ma'lum darajada ko'taradi.

Qishloq xo'jaligida innovatsion faoliyatni tashkil etishning muhim shakllaridan biri bu innovatsiyalar bozoriga ilmiy-texnik mahsulotlarni kiritishni, axborot-maslahat ta'minotini, loyihalarni ekspertizasini, takliflar va buyurtmalarni, tajriba ishlab chiqarish ba'zalarini rivojlantirish, moliyalash uchun moliya-kredit tuzilmalarni vujudga kelishini tashkil etadigan korxonalarni shakllantirishni ko'zda tutadigan innovatsion infratuzilmani rivojlantirish bo'lib hisoblanadi. Agrar sohada innovatsion faoliyatni rag'batlantirish samaradorligini oshirish maqsadida, qishloq xo'jaligining asosiy tarmoqlarini rivojlantirishga qaratilgan va o'zida naslchilik ishini rivojlantirishga maqsadli subsidiyalari, kimyoviy vositalarini sotib olishda xarajatlarining bir qismini qoplash, qishloq xo'jalik o'simliklarining original va elita urug'larini, asosiy fondlarni yangilash tadbirlari, yer tuzilishini, yerdan foydalanishni yaxshilash va yer unumdorligini oshirish, agrosanoat majmuasi sub'ektlarini kreditlash va sug'urtalashni mujassamlagan davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimi taklif etilgan. Qishloq xo'jaligida bugungi kunda tarmoqni innovatsion rivojlantirishning ilmiy-texnologik, boshqaruv va tashkiliy shartsharoitlarini yaratishga qaratilgan iqtisodiy mexanizm ta'siri ostida amal qilishi lozim.

Qishloq xo'jaligini innovatsion rivojlanish strategiyasidan kelib chiqib iqtisodiy mexanizmni shakllantirish quyidagi yo'nalishlarda amalga oshishi lozim: Innovatsion faoliyatni normativ-xuquqiy tartibga solish tizimini shakllantirish; Qishloq xo'jaligining respublika va mahalliy darajalarida innovatsion faoliyatni maqsadlidasturli rivojlantirish; Davlat-xususiy sherikligini rivojlantirish.

Qishloq xo'jaligini innovatsion rivojlantirishni iqtisodiy mexanizmining mazmunini tadqiq etish undagi yalpi instituttsional, instrumental, metodologik va normativ-xuquqiy komponentlarni ajratib ko'rsatish imkonini beradi. Ularning har biri agrar ishlab chiqarishda innovatsion faoliyatni rivojlantirishning mustaqil shakl va yo'llarini va shu bilan birga ularning asosiy xal etadigan vazifalar yo'nalishini belgilab beradi. Ularga: agroinnovatsiyani shakllanishining barcha jarayonlarida xo'jalik sub'ektlarini innovatsion aktivligini rag'batlantirish; xo'jalik sub'ektlarining innovatsion salohiyatini oshirish; tarmoqni investitsion jozibadorligini oshirish; infratuzilmani va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotish bozorlarini kengaytirish.

References:

1. Z.S. Shoxo'jaeva, Y.Y. Muxammadieva IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA QISHLOQ XO'JALIGINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. May 2022. 16-24
2. Ходжакулов, М. Н. (2022). ПРОБЛЕМЫ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ НАСЕЛЕНИЯ К ДЕЙСТВИЯМ В ЧРЕЗВЫЧАЙНЫХ СИТУАЦИЯХ И ДРУГИХ ЭКСТРЕМАЛЬНЫХ УСЛОВИЯХ. Universum: технические науки, (6-1 (99)), 18-20.
3. Ходжакулов, М. Н. (2021). ПРОБЛЕМЫ РАДИАЦИОННОЙ И ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ БЕЗОПАСНОСТИ И ПУТИ ИХ РЕШЕНИЯ. Universum: технические науки, (5-1 (86)), 27-31.

4. Khodjakulov Mukhtorjon, & Rakhimov Dilmurad (2022). PROPOSALS FOR AMENDMENTS TO REGULATORY DOCUMENTS FOR HIGH-RISE BUILDINGS. *Universum: технические науки*, (6-6 (99)), 51-54.
5. Yulchiyev, D. R. O. G. L., Khodjakulov, M. N., & Muxabbatxon, G. (2022). THE IMPORTANCE OF USING SOFTWARE (SEARCH AND INFORMATION MAP SERVICE, GEOLOCATION) IN FIRE VEHICLES IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN. *Scientific progress*, 3(2), 82-89.
6. Ходжакулов, М. Н. (2020). Модель обучения «5+ 1» и его применение при подготовке специалистов в высших учебных заведениях. *Universum: психология и образование*, (9 (75)), 7-12.
7. Habibullaevna, K. S., & Xodjakulov, M. N. (2022). Emergency Situations that May Occur as a Result of Public Disorder, Damage Reduction and Fire Safety Measures. *International Journal of Formal Education*, 1(12), 74-77.
8. Туланов Мамасидик. (2023). ФОРМИРОВАНИЕ ЭКОКУЛЬТУРНОГО И ЗДОРОВОГО ОБРАЗА ЖИЗНИ У МОЛОДЕЖИ – ТРЕБОВАНИЕ ВРЕМЕНИ. *Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies*, 2(4), 405–409.
9. Назаров, М., Туланов, М. К., & Акрамов, М. К. (2015). КУЛЬТУРА КАК ФАКТОР ОБЕСПЕЧЕНИЯ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ И ДУХОВНЫХ ПОТРЕБНОСТЕЙ ЛИЧНОСТИ. *Журнал научных публикаций аспирантов и докторантов*, (6), 67-69.
10. Туланов, М., & Юлчиев, Э. (2016). НЕОБХОДИМОСТЬ ФОРМИРОВАНИЕ СОЦИАЛЬНОГО ПАРТНЕРСТВА В АГРАРНОМ СЕКТОРЕ ЭКОНОМИКИ. In *Современные тенденции развития аграрного комплекса* (pp. 1413-1415).
11. Расулова, Н., & Хакимова, Ш. ЁШЛАРДА РЕПРОДУКТИВ ОНГ ВА ОИЛАГА ҚАДРИЯТЛИ МУНОСАБАТНИ ТАРБИЯЛАШНИНГ ПСИХОЛОГИК-ПЕДАГОГИК ЖИҲАТЛАРИ ТАҲЛИЛИ.
12. Yakubova Barno Baxtiyorovna. (2023). FORMATION OF INDEPENDENT THINKING AMONG YOUNG PEOPLE – TODAY IS THE MOST RELEVANT DAY IN PEDAGOGY AS A FUNCTION. *Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies*, 2(3), 143–148.
13. Яқубова, Б. Б. (2019). Теоретические основы организации самостоятельной работы студентов. In *Психология в меняющемся мире: проблемы, гипотезы, исследования* (pp. 291-295).
14. Bakhtiyarovna, Y. B. (2022). CREATIVENESS AND CREATIVENESS IN A PERSON THE NEED FOR THE DEVELOPMENT OF ADJECTIVES. *Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development*, 3, 56-58.
15. SATVALDIYEV, A. (2021). РАҲБАРНИНГ КАСБИЙ МАҲОРАТИ. *Scienceweb academic papers collection*.
16. SATVALDIYEV, A. (2022). РИВОЖЛАНГАН БОЗОР ИҚТИСОДИЁТИДА ОИЛАВИЙ ТАДБИРКОРЛИКНИ ЎРНИ.
17. SATVALDIYEV, A. (2019). БОШҚАРУВ ТИЗИМИДА ФАОЛИЯТ КЎРСАТАЁТГАН РАҲБАР ХОТИН-ҚИЗЛАРНИНГ ШАХСИЙ ВА ИЖТИМОИЙ ПСИХОЛОГИК СИФАТЛАРИ. *Scienceweb academic papers collection*.
18. SATVALDIYEV, A. (2022). PERSONAL AND SOCIAL PSYCHOLOGICAL FACTORS OF FEMALE MANAGERS. *SCIENTIFIC AND TECHNICAL JOURNAL MACHINE BUILDING*.

19. SATVALDIYEV, A. (2021). ХУСУСИЙ ТАДБИРКОРЛИҚДА РАҲБАР АЁЛ ФАОЛИЯТИ МУАММОСИНИНГ ЎРНИНИ ЎРГАНИШ.
20. SATVALDIYEV, A. (2021). ЖЕНСКОЕ ЛИДЕРСТВА В ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВЕ СЕГОДНЯ.
21. SATVALDIYEV, A. (2020). УСЛОВИЯ И РЕШЕНИЯ ДЛЯ ЖЕНЩИН ПРЕДПРИНИМАТЕЛЕЙ СЕГОДНЯ.
22. SATVALDIYEV, A. (2022). The Role of Women Leaders in Small Business and Private Entrepreneurship. International Journal of Formal Education.
23. SATVALDIYEV, A. (2020). ТАДБИРКОР ВА РАҲБАР АЁЛЛАРНИНГ ИМИДЖИНИ ШАКЛЛАНТИРУВЧИ ГЕНДЕР СИФАТЛАР ТАҲЛИЛИ. Scienceweb academic papers collection.
24. Хамидовна Р. О. Methods of teaching young people to communication in pedagogical activity //eurasian journal of academic research. – 2021.
25. Bakhtiyarovna, Y. B. (2022). Independent Thinking in Graphic Education Application of Reinforced Interactive Methods. Eurasian Journal of Research, Development and Innovation, 15, 1-3.
26. Bakhtiyarovna, Y. B. (2022). INDEPENDENT WORK OF STUDENTS THROUGH THE INTERNET PEDAGOGICAL CONDITIONS OF ORGANIZATION. Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development, 3, 59-61.
27. Bakhtiyarovna, Y. B. (2021). A modern method of independent teaching the role of the distance education system information. Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities, 1(1.5 Pedagogical sciences).
28. Bakhtiyorovna, Y. B. (2021). Independent work of students through the internet pedagogical conditions of organization.
29. Mamasidiq T. The Role of National, Religious, Traditions and Moral Heritage of the Uzbek People in the Education of Young People //Telematique. – 2023. – С. 7652-7657.
30. Mamasidiq T. Socio-Psychological Aspects of the Formation of Civil Positivity in Young People //Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal. – 2023. – Т. 2. – №. 3. – С. 319-321.
31. Туланов, М. (2016). ИСТОРИЯ КАК ОСНОВА ДУХОВНОГО ВОСПИТАНИЯ МОЛОДЕЖИ. In Современные тенденции развития аграрного комплекса (pp. 1698-1700).
32. Туланов, М. (2016). ДУХОВНАЯ ЦЕННОСТЬ, КАК ГЕНЕЗИС РАЗВИТИЯ НАЦИОНАЛЬНОЙ ИДЕОЛОГИИ В МНОГОНАЦИОНАЛЬНОМ ГОСУДАРСТВЕ. In Современные тенденции развития аграрного комплекса (pp. 1683-1687).
33. Туланов Мамасидик. (2023). ПОСТРОЕНИЕ ДУХОВНОГО ПРОСТРАНСТВА, ПРОСВЕЩЕННОГО ОБЩЕСТВА, ГДЕ ЧЕЛОВЕК ЖИВЕТ СВОБОДНО И КОМФОРТНО В ОБНОВЛЕННОМ УЗБЕКИСТАНЕ, ЯВЛЯЕТСЯ АКТУАЛЬНЫМ ВОПРОСОМ. Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies, 2(4), 396–399.
34. Rakhmonova, D. S. (2020). Teacher's creative potential is factor of education quality assurance. Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology, 2(3), 453-457.
35. Saidovna, R. D. (2021). Pedagogical creativity as a factor of student development. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 2(05), 729-736.

36. Saidovna, R. D. (2023, March). A SYSTEMATIC APPROACH TO THE DEVELOPMENT OF STUDENTS' CREATIVE ABILITIES. In Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies (Vol. 2, No. 3, pp. 133-142).
37. Khamidovna, P. O., Saidovna, R. D., & Barnohon, Y. (2019). The Role of Interactive Methods For Improving Students Communicational Culture of Higher Educational Institutions. International Journal of Scientific Research And Education, 7(4).
38. Saidovna, R. D. (2022). PROFESSIONAL COMPETENCE OF THE EDUCATOR–THE MAIN FACTOR ENSURING THE QUALITY OF EDUCATION. Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development, 3, 226-231.

